

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Hayvonlar anatomiysi, histologiya va patologik anatomiya” kafedrasi professori, veterinariya fanlari doktori Dilmurodov Nasriddin Babakulovichning 60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari uchun “Hayvonlar anatomiysi” fanidan “Parrandalar anatomiysi” mavzusidagi ochiq ma’ruza darsining matniga

T A Q R I Z

Parrandalar organizmining tuzilishi qushlar sinfiga xos bo‘lgan bir qator xususiyatlari bilan qishloq xo‘jalik hayvonlari organlaridan farq qilib, ularning anatomik tuzilishi, topografiyasi hamda morfofunksional jihatlarini o‘rganish veterinariya mutaxassislarining shakllanishi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki, parrandachilik tarmog‘i rivojlanib borayotgan hozirgi davrda parrandalar veterinariya mutaxassislarining asosiy ob‘yektidan biriga aylanib ulgurgan.

Mazkur mavzu bo‘yicha tayyorlangan ma’ruza matni hozirgi kun talablari darajasida bo‘lib, talaba bilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni qamrab olgan. Xususan, parrandalarda suyakning ichi havo bilan to‘lganligi, kompakt moddasida mineral tuzlar miqdorining ko‘pligi, suyaklari pnevmatik, terisida bezlar yo‘qligi, oyoqlari uchishga moslashganligi, muskullari qanotlarida va ko‘krak qismida yaxshi rivojlanganligi, nafas yo‘llarida qo‘srimcha havo xaltachalari bo‘lishi, og‘zida tishi yo‘qligi, yo‘g‘on ichaklari kaltaligi, siydirik pufagi yo‘qligi, chap tuxumdoni va tuxum yo‘li rivojlanganligi kabi bir qator tafovutlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Matnda ta’lim texnologiyasi hamda texnologik xarita, ma’ruzaning rejasi, har bir masalaning mazmuni, nazorat uchun savollar hamda foydalanalidigan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Ma’ruza matnnini tayyorlashda fan dasturi asosida ishlab chiqilgan fanning ishchi o‘quv dasturiga amal qilingan. Matn xorijiy adabiyotlardan olingan yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Veterinariya fanlari doktori, professor N.B.Dilmurodov tomonidan tayyorlangan ushbu ochiq ma’ruza darsining matnnini talab darajasida tayyorlanganligini inobatga olib, uni mavzuni o‘qitish jarayonida qo’llashga tavsiya etaman.

**Veterinariya jarrohligi va
akusherlik kafedrasi professori**



H.B.Niyoziyov

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Hayvonlar anatomiysi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedrasi professori, veterinariya fanlari doktori Dilmurodov Nasriddin Babakulovichning 60840100 – Veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalariga mo‘ljallangan “Hayvonlar anatomiysi” fanidan “Parrandalar anatomiysi” mavzusidagi
ochiq ma’ruza darsi matniga**

T A Q R I Z

Parrandalar organlari o‘ziga xos morfologik tuzilishga ega bo‘lib, ularning hayot kechirish tarzi bilan bog‘liq ravishda filogenez va ontogenetika o‘ziga xos morfofunksional xususiyatlarni namoyon qiladi. Ular organlarining anatomo-topografik tuzilishi qishloq xo‘jalik hayvonlarniki singari tamoyilga ega bo‘lsada, suyaklarining pnevmatik bo‘lishi, uchishga moslashganligi sababli oldindgi oyoqni qanotga aylanganligi, somatik muskullari, teri qoplamasи, ovqat hazm qilish, nafas olish, reproduktiv, yurak-qon tomirlar va limfa tizimi, asab va sezgi organlari tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan farq qiladi.

Parrandalar organizmi qushlar sinfiga xos bo‘lgan belgilarni namoyon qilib, qishloq xo‘jalik hayvonlar organizmidan morfofunksional jihatdan ko‘pgina belgilari bilan farq qilishi ixtiyoriy harakat organlaridagi tafovutlar, ya’ni qanotni hosil bo‘lganligi, terida bezlarning bo‘lmasligi, qizilo‘ngachning kengaygan joyi – jig‘ildanni bo‘lishi, qovuqni bo‘lmasligi, kloakan paydo bo‘lganligi, tovuq hiqildog‘ini paydo bo‘lganligi, faqat chap tuxumdon va chap tuxum yo‘lining rivojlanligi kabi taofvutlar alohida ko‘rsatib o‘tilgan

Ma’ruza matnida parrandalarning yashash tarzi hamda evolyutsiya mobaynida rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda organlarining bajaradigan vazifasi organizm uchun ahamiyatini inobatga olgan holda, ularning shakllanishi, anatomik tuzilishi, topografiyasi bo‘yicha etarlicha ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, matnda xorij adabiyotlarining mavzuga doir ma’lumotlari ham o‘rin olgan.

Parrandalar anatomiysi mavzusini o‘qitish bo‘yicha tayyorlangan ma’ruza matni bugungi kun talablari darajasida bo‘lib, talabalar ushbu tizimni o‘rganishda bilishi lozim bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan. Matnda ta’lim texnologiyasi hamda texnologik xarita, ma’ruzaning rejasi, har bir masalaning mazmuni, nazorat uchun savollar hamda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Mazkur ochiq ma’ruza darsining matni belgilangan talab asosida tayyorlangan va uni mavzuni o‘qitish jarayonida qo‘llashga tavsiya qilaman.

**Veterinariya ilmiy-tadqiqot
instituti direktori, professor**


Elmurodov B.A.

